

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.D.Baxronov	
Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda etnomadaniyatning o'рни.....	201
H.S.Ergashev	
Sharq mutaffakirlari ijodida shaxs ma'naviy kamolotiga oid falsafiy qarashlar evolutsiyasi	207
I.T.Boltaboyev	
Temuriylar davri mutaffakirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning rivojlanishida Amir Temurning o'рни.....	212
Sh.O'.Ahrorova	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'рни.....	216
U.X.Xolmatov	
Axboriy kurashlar sharoitda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning milliy-ma'naviy omillari	220
F.B.Rahmonova	
O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'raonliklardan himoya qilishning falsafiy-deterministik tahlili	225
J.Saburov	
Buxoro amirligida tasvvuf ilmi uzviyligi va ijtimoy madaniy hayotga uyg'unligi hamda ta'siri	230
B.A.Pulatov	
Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning falsafiy omillari	236
S.S.Evatov	
Musulmon sharqi falsafiy tafakkurining takomil bosqichlari va unga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar xususida.....	240
A.Sh.Raximov	
Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida yoshlar vatanparvarligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy tavsifi	245
	SIYOSAT
Sh.Ismoilov	
O'zbekistonda ijtimoiy himoya – davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalish	249
D.Sh.Mahkamov	
Hakamlik sudi va davlat sudlari o'rtasidagi farqlar	252
R.Nurimbetov	
Shanxay hamkorlik tashkiloti istiqbollari: O'zbekiston yondoshuvlari	255
B.X.Allamurodov	
Digital diplomacy in the foreign policy of Central Asian countries (using the example of Uzbekistan and Kazakhstan)	258
M.B.Nabiyev	
Jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.....	265
N.Madumarova	
Kasaba uyushmalari notijorat tashkilotlarning alohida shakli sifatida	269
A.A.Buriyev	
Sudlar orqali intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq nizolarni hal qilishning o'рни va bu boradagi xorijiy tajriba	273
D.Mamadjonova	
Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
A.A.Ahrorqulov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solish.....	281
	TARIX
Бурҳониддин Чалодиддин	
Мухаммадвалихан Дарвози основатель новой прогрессивной внешней политики.....	285
M.T.Musaev	
Globalashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lishi	292
R.A.Arslonzoda	
Отражение литературной жизни Бухары в “воспоминаниях” Садриддина Айни	297



UO‘K: 101.1

HARBIY QAHRAMONLIK IDEALLARI ASOSIDA YOSHLARDA MILLIY IFTIXOR TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY OMILLARI**ФИЛОСОФСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ У МОЛОДЕЖИ ЧУВСТВА НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ, ОСНОВАННОГО НА ИДЕАЛАХ ВОЕННОГО ГЕРОИЗМА****PHILOSOPHICAL FACTORS OF FORMING A SENSE OF NATIONAL PRIDE IN YOUNG PEOPLE BASED ON THE IDEALS OF MILITARY HEROISM****Pulatov Baxodir Abduraupovich** 

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari, yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari o‘rganilgan. Shuningdek, harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning falsafiy omillari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье исследуются теоретико-методологические основы формирования идеалов военного героизма в сознании молодежи, социально-философские основы формирования идеалов военного героизма в сознании молодежи. Также анализируются философские факторы формирования у молодежи чувства национальной гордости, основанного на идеалах военного героизма.

Abstract

In the article, the theoretical and methodological foundations of the formation of ideals of military heroism in the thinking of young people, the socio-philosophical foundations of the formation of ideals of military heroism in the thinking of young people are studied. Also, philosophical factors of forming a sense of national pride in young people based on the ideals of military heroism are analyzed.

Kalit so‘zlar: tafakkur, vatanparvarlik, ideallik, fenomen, ratsional, qahramonlik, harbiy qahramonlik, tarixiy, harbiy jasorat, iftixor, milliy, falsafiy, vatanparvarlik tuyg‘usi, axloqiy, ta‘lim-tarbiya.

Ключевые слова: мышление, патриотизм, идеализм, явление, рациональное, героизм, военный героизм, историческое, военное мужество, гордость, национальное, философское, патриотизм, моральное, воспитание.

Key words: thinking, patriotism, idealism, phenomenon, rational, heroism, military heroism, historical, military courage, pride, national, philosophical, patriotism, moral, education.

KIRISH

Bugungi taraqqiyot bosqichida harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish vatanparvarlik va iftixor tarbiyasining ta‘sirli mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Turli xalq, millat hamda elatlarning o‘zligini anglashi ularning mustaqilligi, erkin kafolatlovchi muhim shart sanaladi. Binobarin, milliy o‘zlikni anglash ana shu xalq, millat va elatlarning kishilik jamiyatidagi o‘rni va mavqegining belgilanishini ta‘minlaydi. Millat vakillarining milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usiga ega bo‘lishlari ularning milliy o‘zliklarini anglashlariga boshlang‘ich asosdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Insoniyat yaratgan ma‘naviy merosida qahramonlikka doir g‘oyalar mifologik, diniy-didaktik, epik yo‘nalishdagi Avesto, Tripitaka, Ramayana, Maxabxarata, Iliada, Alpomish kabi asarlarda, Tavrot, Zabur, Injil, Qur‘on kabi ilohiy kitoblarda, hadisi shariflar va mumtoz adabiyotimiz namunalarida, ko‘plab faylasuflarning asarlarida uchraydi. Tarixiy va axloqiy idelallarga doir ilmiy izlanishlarining yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga ta‘siri muammolari R.Mixner, S.Kautz, J.Sitser, Fernand Grenand, Frederik Starr, Eyji Mano, Magida Mahluf, Mark Bonnel, Yul Yanssens, Masataka Takeshita, Shi Yunli, P.Petrov, S.I.Tyulyayev, S.P.Tolstov, K.Pirliyev, R.R.Safin, I.F.Xarlamov,

FALSAFA

B.To'ychiyev, I.Inoyatov, M.Abilov, V.Kaloshin, O.Abdurasulov, A.Sa'diyev, E.Safayeva, N.Remeyev, Y.G'affarov, T.Toshpo'latov, S.Mahkamov R.A.Mulladjonova, O.Musurmonova, N.Ortiqov, B.Xodjayev, Q.Shonazarov, H.Boltaboyev, G.Zaripova, N.Komilov, U.Mansur, U.Mahkamov, S.Nishonova, N.Ortiqov, O.Musurmonova, K.Qilichevalar tomonidan tadqiq etilgan.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish ularning xalq, millat va vatan tarixini chuqur bilishlari, ajdodlarga munosib avlod bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash bilan birga, vatanparvar insonga xos muhim ma'naviy-axloqiy sifatlarni namoyon eta olishlari uchun ham sharoit yaratadi. Zero, vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazish respublikada amalga oshirilayotgan ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi etib belgilangan.

Hozirgi davrda harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish masalasi muhim ijtimoiy vazifalardan biri hisoblanadi. Yetuk madaniyatli qahramonlik ideallarini o'zlashtirib, ularga qat'iy amal qilgan holda ijtimoiy faoliyatni amalga oshiradi. Millat ma'naviyatini tiklash va rivojlantirishda milliy ong, til va madaniyat yetakchi o'rin tutadi. Ulardan samarali foydalanish yoshlarda milliy his-tuyg'u, g'urur va iftixorni o'stirish, shuningdek, milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy g'urur shaxsning muayyan millatga mansubligi, uning milliy etnopsixologik xususiyatlari hamda ushbu millat tomonidan jahon madaniyatiga qo'shilgan hissadan faxrlanish tuyg'usidir .

Milliy iftixor esa – muayyan millatga mansublik va ushbu millat tomonidan jahon madaniyatiga qo'shilgan hissadan faxrlanish, shuningdek, o'zi mansub bo'lgan millatga sadoqatli bo'lish hissini tuyish va bu yo'lda amaliy faoliyat ko'rsatishdan iboratdir .

Milliy o'z-o'zini anglash – bu shaxs tomonidan milliy mansublik, ushbu millat tomonidan jahon madaniyatiga qo'shilgan hissadan faxrlanish u mansub bo'lgan millatga xos va ijobiy xarakter kasb etuvchi etnopsixologik xususiyatlar, milliy qadriyatlar va ular mazmunida ilgari surilgan g'oyalar mohiyatini tushunish va ularga muvofiq ijtimoiy faoliyatni tashkil etish jarayoni demak .

Bizning nazarimizda, "g'urur" va "iftixor" tushunchalari o'rganilayotgan obyekt nuqta nazaridan ham individual, ham ijtimoiy xususiyatni namoyon eta oladi. Zero, shaxs g'ururi – bu muayyan shaxsga xos bo'lgan psixologik xususiyat bo'lib, u shaxsning ijtimoiy mavqei (masalan, ma'lum millat vakili sifatidagi mavqei), shaxsiy xususiyatlar, turmush tarzi, kasbiy yoki ijtimoiy faoliyat, erishilgan muvaffaqiyatlardan qoniqish hosil qilish sanaladi. Milliy g'urur tuyg'usiga egalik ma'lum millatga mansub shaxsning ana shu millatning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni, mavqei, insoniyat taraqqiyoti va sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini anglash, faxrlanish va qoniqish demakdir.

Milliy iftixor esa – bu muayyan millatga mansublik va bu millat tomonidan jahon madaniyatiga qo'shilgan hissadan faxrlanish, shuningdek, o'zi mansub bo'lgan millatga sadoqatli bo'lish hissini tuyish va bu yo'lda amaliy faoliyat ko'rsatishdan iboratdir. Xo'sh, "milliy iftixor" tuyg'usi negizida qanday sifatlar namoyon bo'ladi? Tadqiqotni olib borish davrida ana shu savolga javob topishga urinib ko'rdik.

Xalq tarixidan to'la xabardor bo'lish yoshlarga milliy mansublik, millatning o'tmishi, tarixining o'ziga xosligiga oid ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. Zero, o'z xalqi tarixini anglamagan inson o'zining jamiyatdagi o'rni, turli millatlar orasidagi mavqeini belgilay olmaydi. Ijtimoiy mavqega ega bo'lmagan inson esa mustaqil fikrlay, turli vaziyatlarda o'zi qaror qabul qila olmaydi. Shu bois u qaramlik, mute'lik va qullikka mahkum bo'ladi.

Millatning shonli sahifalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish, shiddatli tarixiy o'zgarishlar davrida ham millatning ma'naviy-axloqiy qarashlari, e'tiqodidan voz kechmaganligidan g'ururlanish insonda kelajakka bo'lgan ishonch hissini uyg'otadi. Kelajakka ishonch shaxsda ruhiy bardamlik, tetiklikni tarbiyalaydi, murakkab, o'ta qiyin vaziyatlarda ham tahlikaga tushmaslik, vaziyatdan chiqqa olish uchun harakat qilishga turtki beradi.

Millatga xos ijtimoiy ruhiyat uning buguni va ertangi kunining mazmunini yaratishga xizmat qiladi. Milliy ruhiyat o'z navbatida ijtimoiy turmush tarzining shakllanishi uchun asosdir. Bu o'rinda millat ruhiyatiga xos ijobiy jihatlarni ajrata olish, ularni takomillashtirish, shu bilan birga salbiy holatlarni bartaraf etish millatning har tomonlama taraqqiy etishi uchun zamin yaratadi. Milliy madaniyat millat tarixining mahsuldorligini ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Turli milliy madaniyatlar asosida jahon sivilizatsiyasi ta'minlanadi. Bir millatning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi u tomonidan yaratilgan madaniyat bilan belgilanadi. Millatning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan

hissasini anglash, milliy madaniyat asoslaridan xabardorlik insonda o'ziga xos g'urur, iftixorni yuzaga keltiradi.

Milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar, ularda ilgari surilgan g'oyalar inson ruhiyatining shakllanishi, unda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Milliylikni belgilovchi omillardan biri urf-odat, an'ana va qadriyatlardir. Shu sababli inson ham millat vakillaridan biri sifatida milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni asrash, ularni yanada boyitish to'g'risida qayg'urishi zarur. O'z navbatida milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar g'oyalarining millat ravnaqi, insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan faxrlanish yoshlarning milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. O'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda yoshlarni milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni asrash, ularni boyitish uchun harakat qila olish ko'nikmalarini tarbiyalashga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq.

Millatning millat ekanligini belgilovchi muhim omillardan biri uning milliy tilga egaligi hisoblanadi. Milliy tilning ravnaqi millat kuch-qudratidan dalolat beradi. Turli madaniyatlar integratsiyasi yuzaga kelayotgan bir sharoitda milliy tilni saqlab qolish, uni yanada boyitish dolzarb vazifa. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida yoshlarda milliy tilga bo'lgan hurmatni qarorni toptirish, uning mazmunan sayozlanishiga yo'l qo'ymaslik zarur. O'quv fanlari, shu bilan birga tarbiyaviy ishlar vositasida milliy til imkoniyatlaridan yoshlarni xabardor qilib borish kutilgan natijalarni beradi, ularda milliy iftixor tuyg'usini shakllantiradi.

Millat tarixidagi fojealardan qayg'urish milliy iftixor tuyg'usi negizidagi ko'zga tashlanuvchi muhim xislatlardan biridir. Ayni o'rinda shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, Vatan ozodligi yo'lida olib borilgan kurashlar millat vakillarida vatanparvarlik, milliy g'urur tuyg'usini yanada mustahkamlaydi. Shonli kurashlar tarixi esa ajdodlarning avlodlarga ko'rsatuvchi ibrati bo'lib, yosh avlod ular bilan iftixor qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mualliflar vatanparvarlikning Vatan uchun og'ir damlardagi rolini ko'rsatar ekanlar, quyidagi fikrni alohida ta'kidlaydilar: "Mamlakat uchun og'ir damlar (inqilob, urushlar, davlat tomonidan Rossiya xalqlarining qatag'on qilinishi, puxta o'ylanmagan islohotlar, iqtisodiy va siyosiy tanazzullar ro'y bergan)da ba'zan Rossiya o'z davlat mustaqilligini yo'qotayotganday tuyuladi, ammo aynan vatanparvarlik an'analari, milliy iftixor, milliy o'z-o'zini anglash tuyg'usi tufayli bunday qiyinchiliklar bartaraf etilgan".

I.Guberman "Yahudiylar dunyosi" gazetasining 2004-yil 16-dekabr sonida e'lon qilingan maqolasida "Ming afsuski, juda ko'plab jamoat tashkilotlari, kasaba uyushmalari xalqimizda nihoyatda past darajada shakllangan milliy iftixor tuyg'usini tarbiyalashga deyarli e'tibor berishmayapti. Bu fojining asosiy sabablaridan biri – tarixiy ildizlarimizga bo'lgan qiziqishning yo'qolganligi, milliy iftixor tuyg'usiga ega emasligimizdir", - deya ta'kidlar ekan, inson qaysi davlatda yashashidan qat'iy nazar o'z millatining tarixini puxta bilishi va u bilan faxrlana olishi lozimligiga e'tiborni qaratadi. Muallif o'zining jahonga Dizrael, Freyd, Eynshteyn, generallar Slushkevich, Kreyzer, admiral Rikover, mashhur bokschilar Daniel Mendoza, Mars Ber va boshqalarni tarbiyalab bergan yahudiy millati farzandi ekanligidan faxrlanishini aytadi. Uning fikrlari aksariyat jamoatchilik tomonidan keskin tanqid ostiga olindi. Zero, maqolada jahon urushi "olovi"ni yoquvchilardan biri bo'lgan general Kreyzer nomi tilga olingan edi. Bu holatdan ham shuni anglash mumkinki, millatning umumbashariyat taraqqiyotiga yetkazgan zarari bilan emas, balki qo'shgan hissasi bilan faxrlanish zarur. Demak, vatanparvarlik asosida millatchilik g'oyalarini ilgari surish, shovinistik kayfiyatni namoyon etishdan saqlanish zarur. I.Guberman o'z qarashlarida Vatanga muhabbat, millatning atoqli farzandlari bilan faxrlanish bir millatni boshqa millatlardan farqlash, ajratish yoki ustun qo'yishga xizmat qilmasligi lozimligini uqtirgan holda yuqoridagi xatoga yo'l qo'ydi.

YE.Romanova "Yevropada vatanparvarlik qolmadi" nomli maqolasida amerikalik sotsiolog, psixolog, Stenford universiteti professori Vilyam Deymonning qarashlari asosida masalaning mohiyatini ochib berishga urinadi. Vilyam Deymon: "Hozirda Amerikada kosmopolitizm (vatansizlik)ni yoqlovchilar ko'pchilikni tashkil etib, ular o'zlarini ma'lum bir mamlakat fuqarosi (masalan, Amerika fuqarosi) deb hisoblamaydilar. Ularning fikricha, inson taqdirning taqozosi bilangina ma'lum bir mamlakatda tug'iladi. O'zlarini vatanparvar deb biluvchilar milliy iftixor tuyg'usiga egalikni militaristik shovinizm (o'taketgan millatchilik, millatlar o'rtasida dushmanlik va nafratni targ'ib etish) g'oyalari bilan adashtiradilar. Shu sababli ko'pchilik amerikalik yoshlar mamlakatning haqiqiy fuqarosi bo'lishning mohiyatini anglamaydilar" deya mulohaza yuritadi.

O'tkazilgan ijtimoiy so'rovlar va olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, amerikalik yoshlarning asosiy katta qismi "fuqaro" tushunchasi mazmunini anglamaydilar, shu bilan birga ma'lum bir davlatning fuqarosi bo'lishni istamaydilar. Shuning sababini "fuqarolik zimmasiga katta

FALSAFA

mas'uliyat, ko'plab majburiyatlarni olish" ekanligi, bunday mas'uliyat va majburiyatlarni zimmalariga olish xohishlari yo'qligi bilan izohlaydilar. Biroq, Yevropa davlatlarida fuqarolikka nisbatan ijobiy yondashuv mavjud. Masalan, "Buyuk Britaniyalik yoshlarning ko'pchiligi o'z mamlakatlarini qandaydir bir "umum yevropa"ga almashtirishni xohlamaydilar, ular o'z xalqi o'tmishi va tarixini qadrlaydilar, doimo xotirlab turadilar va u bilan faxrlanadilar", – deb yozadi britaniyalik ekspert Piter Liddl.

Darhaqiqat, Buyuk Britaniya aholisi boshqa millat vakillari o'rnak olishi lozim bo'lgan milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ulariga ega. Jumladan, ular qirollik va qirol (qirolicha)ni mamlakat tarkibiy tuzilmasining asosiy, muhim bo'lagi, millat tarixining ajralmas qismi sifatida tan oladilar, qirol (qirolicha)ga cheksiz hurmat ko'rsatadilar. Bu holat fuqarolarning mamlakat tarixiga bo'lgan ijobiy munosabatlarini anglatadi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan qarashlardan anglanadiki, shaxsning milliy o'zlikni anglash, milliy iftixor tuyg'usiga egaligi kishilarni barcha davrlarda ham millat va Vatan sha'nini himoya qilish, uning manfaatlari yo'lida kurashishga rag'batlantira olgan. Turli xalqlarning milliy mustaqillikka erishuvi tufayli milliylikni anglash, milliy tuyg'uga ega bo'lish asosida millatning individualligi va milliy madaniyatning o'ziga xosligini saqlab qolishga bo'lgan intilish kuchaydi. Bu holat esa o'z navbatida tadqiqot muammosining yanada dolzarblashuvini ta'minladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Анохина В.М., Павлова М.Б. Воспитание гражданина в современной школе. – Омск: Наука, 2003. – 89 с.
2. Замилова Р. Герои и героическое: этикофилософский анализ. 2.с. 12-14 — Тошкент: Noshir, 2013.
3. Ильенков Э. В. Философия и культура. – М.: Издательство Политической литературы, 1991. -195 с
4. Искендеров Ж.С. Педагогика коллежи ўқувчиларида характернинг интеллектуал ва иродавий хусусиятларини шакллантириш: Псих. фан. ном. ...дисс. – Т., 2009. –Б. 37.
5. Новейший философский словарь / Сост.А.А.Грицанов. – Мн.: Изд. В.М. Скакун, 1998. С.252.
6. Самадов А.Р Ахлоқий идеалнинг ижтимоий-фалсафий моҳияти ва унинг баркамол авлод тарбиясидаги аҳамияти. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.-Тошкент: 2011. – 10 б.
7. Фалсафа: Қомусий луғат //Қ.Назаров умум. таҳрири остида. - Т.: Шарқ нашриёт-матбаа компанияси Бош таҳририяти, 2004. – Б. 271.